

KON KORXONALARI MARKSHEYDERLIK XIZMATINI TAKOMILLASHTIRISH.

**Sh.S.Botirov**

*Termiz muhandislik-texnologiya institute assistenti*

**R.M.Shodiyev**

*Termiz muhandislik-texnologiya institute talabasi*

**Annotatsiya:** *Marksheyderlik ta'minoti, marksheyderlik ishi, konchilik munosabatlari, yer osti boyliklaridan foydalanish, marksheyderlik ishlarni litsenziyalash, huquqiy-texnikaviy hujjatlar, marksheyderlik ishlarini bajarish yo'riqnomasi, marksheyderiya xizmati to'g'risidagi Nizom, marksheyderlik ishlarini avtomatlashtirish, GIS texnologiyalar.*

**Kalit so'zlar:** *Marksheyderlik ta'minoti, marksheyderlik ishi, konchilik munosabatlari, yer osti boyliklaridan foydalanish, marksheyderlik ishlarni litsenziyalash, huquqiy-texnikaviy hujjatlar, marksheyderlik ishlarini bajarish yo'riqnomasi, marksheyderiya xizmati to'g'risidagi Nizom, marksheyderlik ishlarini avtomatlashtirish, GIS texnologiyalar, syomkalar.*

Marksheyderiya (nem. mark - chegara va scheiden — bo'lmoq, ajratmoq) — konchilik fani va texnikasining bir tarmog'i; tabiiy sharoitdagi ob'yektda aslidan o'lchashlar va Yer ka'ridagi foydali qazilma uyumining shakli va o'lchamlari, qazilmada foydali va zararli komponentlarning joyla-shuvi, o'zida saqlovchi jinslar xususiyati, lahimlarning fazoviy joylashishi, kon ishlari natijasida sodir bo'ladigan kon bosimi va yer yuzasi jinslarining deformatsiyasini o'rganadi. Ish jarayoni marksheyderlik priborlari yordamida olib boriladi. Marksheyderlik ma'lumotlari geometrik proyeksiyalar usulida olingan konchilikka oid grafik hujjatlar, chizmalarda sintez qilinadi. Marksheyderlik ishi quyidagi 2 funksiyani bajaradi: ta'minlash funksiyasi (qidiruv va boshqa konchilik inshootlarini loyihalash, lahimlarga yo'nalish berish, konlarning plan hamda kesma ko'rinishini fazoviy geometrik o'lchash usullari bilan haritaga tushirish va ularni marksheyderlik hujjatlarida aks ettirish) va nazorat qilish funksiyasi (qidiruv la-himlarining o'tishni o'z vaqtida kuzatish, qurilishmontaj ishlarini, foydali qazilmalar va qoplama jinslarni qazib olishda, talofat va sifatsizlanishida tezkor hisob nazorati, zaxiralar o'zgarishini hisobi, atrof muhitni saqlashda konchilik ishlarini to'g'ri olib borishni nazorat qilish, kon bosimi va yer yuzasining siljishi (deformatsiyasi)ni kuzatish va boshqa turli ishlarning nazorati). 1990-yillardan M. ishlarida o'ta aniq pribor — yorug'lik bilan uzoqni o'lchovchi, yo'nalishli lazerli ko'rsatkichlar, gigroskopik va kodli teodolitlar va taxeometrilar, vizirli nivelirlar, avtomatprofilograflar va boshqa elektron-optik asboblardan foydalanilmoqda

Marksheyderlik ta'minoti zarur bo'lgan asosiy injinerlik masalalariga:

- Injinerlik loyihalarini barpo qilish va ulardan ishlab chiqarishda foydalanish;

• Loyiha va kon – geologik shartlariga asosan kon lahimlarini o'tkazish va kon ishlarini havfsizligini ta'minlash.

• Yer qaridan foydali qazilma zahiralari to'liq qazib olishni ta'minlash va kerakli sifat ko'rsatkichlarga ega bo'lgan ma'danni qazishni ta'minlash uchun foydali qazilma konlari zahiralari operativ hisobga olish ishlar.

• Foydali qazilma konlari qatlamlari qazib olinayotgan kon lahimlarini va yer usti obektlarini himoyalash.

Foydali qazilma konlarini qazishda quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin:

• Foydali qazilma konlarini qidiruvi va uning alohida uchastkalarini baholash;

• Konchilik korxonasini loyihalash va qurish;

• Kon korxonalarini konsyervatsiyalash va yerlarni rekultivatsiya qilish;

Konlarni loyihalashda marksheyderlar quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

• Shaxta (karyer) hududida loyihalash ishlari yordamida belgilangan tartibda konga ajratilgan yer hududini (chegaralarini) aniqlash;

• Foydali qazilma konlari konlarini qazish uslubini aniqlash va asoslab berish, qazish variantini aniqlash, yer ustida qurilishi kerak bo'lgan bino va ob'ektlarni shaxta chegarasiga joylashtirish;

• Foydali qazilma konlarini qazish natijasida loyihalananayotgan bino va obe'ktlarga yetishi mumkin bo'lgan zarardan himoyalash tadbirlarini tuzish va xisoblash;

Konlarni qurishda marksheyderlar quyidagi ishlarni bajaradi:

• Asosiy inshoot va kon lahimlarini loyiha chizmalarini tekshirish va ularni geometrik elementlari bilan to'g'riligini aniqlash;

• Sanoat maydonini (promplashadka) marksheyderlik geometrik asos va syomka tarmoqlari bilan ta'minlash;

• Inshoot va kon lahimlarining geometrik elementlarini loyihalash va joyiga ko'chirish;

• Inshootlarni qurishda va kon lahimlarini o'tish jarayonlarida syomkalarni bajarish va planlarini tuzish;

• Loyihaga amal qilinishini nazorat qilish;

Konlarni ekspluatatsiya qilishda marksheyderlar quyidagi ishlarni bajaradi:

• Kon ishlari olib borilayotgan uchastkani asos va syomka tarmoqlari bilan ta'minlash;

• Loyihaviy nuqtalarni, lahimlarni o'rnini joyga ko'chirish;

• Konlarni yer osti uslubida qazishda gorizontal va Vertikal bog'lovchi syomkalarni bajarish;

• Yer osti konlarini, lahimlarini to'liq syomkalarni bajarish;

• Kon lahimlarida yer osti tayanch va syomka tarmoqlarini barpo qilish asosida marksheyderlik chizmalarda kon lahimlarini to'g'ri tasvirlash uchun yer osti kon lahimlarini o'z vaqtida to'liq marksheyderlik syomkasini bajarish;

• Konlarni ochiq qazishda kon lahimlarini marksheyderlik syomkasi va hamma texnologik jarayonlarni (parmalash, portlatish, konni ochish va foydali qazilma

konlarini qazish) marksheyderlik ta'minlash;

Marksheyderlik xizmatining asosiy vazifalari:

- foydali qazilmalarni qazib olish bilan bog'liq bo'lmagan yer osti inshootlarini to'g'ri ishlab chiqish, qurish, rekonstruksiya qilish va ulardan foydalanish ustidan idoraviy va ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirish, binolar va inshootlarni ishlarning zararli ta'siridan muhofaza qilish, shuningdek yer qa'ridan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi boshqa talablarga rioya etish ;

- foydali qazilmalar qazib olish korxonalarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va ulardan foydalanishda marksheyderlik ishlarini o'z vaqtida amalga oshirish;

- foydali qazilmalar konlaridan eng to'liq va kompleks foydalanishni hamda yer qa'rini muhofaza qilishni ta'minlash;

- kon ishlarini olib borishda xodimlar va aholining hayoti va sog'lig'i uchun xavfsizlikni ta'minlaydigan tadbirlarni amalga oshirish.

### **XULOSA**

Kon korxonalarida marksheyder funksional quyi tizimi doirasida avtomatlashtirilgan axborot-ma'lumot xizmatini tashkil etishimiz kerak. Bular turli xil standartlar va asosan asosiy boshqaruv va me'yoriy-texnik markshader hujjatlarining ma'lumot va hisob-kitob ma'lumotlari, shuni ta'kidlash kerakki, bu hech qanday tarzda bosma hujjat matnini almashtirmaydi va uni shaxsiy xotiraga so'zma-so'z o'tkazmaydi. Marksheyderlik normativ hujjatlar orasida marksheyderlik ishlarini ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishimiz kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Закон Республики Узбекистан «О Недрах» (новая редакция). (Ведомости Олий Мажлиса, Республики Узбекистан.

2003 г. № 1, 5 с.)

2. Закон Республики Узбекистан «О промышленной безопасности опасных производственных объектов». (Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2006 г., № 39, 386 с.).

3. Положение о государственном контроле и надзоре за использованием и охраной недр, геологическим изучением недр и рациональным использованием минеральных ресурсов. Приложение № 2 к постановлению Кабинета Министров Республики Узбекистан № 19 от 13 января 1997 г.

4. Положение о Государственной Инспекции за геологическим изучением недр, безопасным ведением работ в промышленности, горном деле и коммунально-бытовом секторе ГИ «Саноатгеоконттехназорат» при Кабинете Министров Республики Узбекистан. Приложение № 3 к Постановлению Кабинета Министров № 131 от 11 мая 2011 г.

5. Типовое положение о Маркшейдерской службе. (Приложение № 2 к

постановлению Кабинета Министров Республики Узбекистан № 168 от 1 апреля 1997 г.).

6. Единые правила охраны недр при разработке месторождений полезных ископаемых. Ташкент, ООО «GRAFO PRINT» 2010 г.

7. Гражданский кодекс Республики Узбекистан. Ташкент, Адолат, 1996 г, 528

8. Закон Республики Узбекистан «О лицензировании отдельных видов деятельности». Ташкент, Адолат, 2001 г.

9. Закон Республики Узбекистан. Об информатизации. (Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2014 г. № 36 452 с.).